

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA YO'L HARAKATI
QOIDALARINI SHAKLLANTIRISH**

G'ulomova Xonzoda Nurmatillo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yo'l harakati xavfsizligini oldini olish yuzasidan tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yo'l transport hodisalari, shikastlanish, piyodalar o'tish yo'lagi.

Formation of traffic rules in elementary school students

G'ulomova Xonzoda

Abstract: This article give recommendations on the prevention of road traffic safety.

Keywords: road trafficaccidents, damage, pedestrian walkway.

Mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yo'l harakati qoidalarini shakllantirish. Xalqimizda " Ustoz otangdek ulug' " degan maqol bor. Zero ustoz ayrim hollarda bolalar dunyoqarashi, ong-u shuriga ota onalaridan ham ko'proq ta'sir ko'rsata oladi. Budungi yosh avlodni yurtimizning fidoyi insonlari qilib tarbiyalashda ustozlarning xizmati cheksizdir.

Bolalar o'rtasida ro'y berayotgan yo'l transport hodisalarini oldini olish uchun yo'l harakati qoidalarini darslarini muntazam olib borish zarur. Bolalarni nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishishida harakatlanish xavfsizligiga oid musobaqa uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish lozim. " Yo'l harakati qoidalarini " boshlang'ich sinf o'quvchilariga eng soda elementlardan boshlab o'rgata borish kerak.

Zero, bu darslar mazmum-mohiyati jihatidan barcha fanlar qatori muhim sanaladi. O'quvchi matematika, ona tili, chet tili fanlar hamkorlikda " Yo'l harakati qoidalarini " ni puxta o'zlashtirib olsa, yo'l transportining ko'ngilsiz hodissalarni chetlab o'tish imoniga ega bo'ladi.

Yo'llarda avtomobillar, avtobuslar yuradi, piyodalar esa yo'laklardan harakatlanishadi. Ularning hammasi yo'l harakati qatnashchilari hisoblanadi. Ulardan har biri o'z o'rniga ega. Ko'chada yurganda ham hovlilardan chiqayotgan avtomobillardan ehtiyot bo'lish, yo'lning qatnov qismidan yurmaslik va duch kelgan joydan yo'lni kesib o'tmaslik kerak. Yo'llarda piyodalar uchun alohida o'tish joylari zebra chiziqlar bilan belgilab qo'yilgan. Transport serqatnov bo'lgan yo'llarda 14 yoshga to'lmagan bolalarning velosiped minishga ruxsat bermaslik, shikastlanishning oldini oladi. Bolalar maktabdan uyga qaytayotganlarida va ta'til kunlari imkon qadar

ota-onalari nazoratida bo'lishlari kerak. Ko'pchilik maktab o'quvchilari velosiped minadilar velosiped yakka turda foydalanadigan transport turlaridan biri hisoblanadi va shuning uchun ham ular velosipedda yurish qoida hamda talablarini bilishlari kerak.

Piyodalarga yo'lning o'ng tomonidan harakatlanishga tavsiya etiladi. Yo'lni kesib o'tishdan oldin chapga, o'rtasiga borganda esa o'ngga qarang. Yo'lni o'rtasida o'ynamang. Birinchi sinf o'quvchilari va qariyalarga yo'lni kesib o'tishga yordamlashish zarur.

Aksariyat yo'l transporti hodisalari piyodalar o'tish maydonchalarida bo'layotganligi hamda ularni bolalar kesib o'tishni bilmasliklari sabab bo'lyabti. Bolalarni yo'l qoidalarini bilmasliklarining sababi nimada, nega ularning bu borada huquqiy ongi yaxshi rivojlanmaganliklarining sabablariga to'xtab o'tsak:

- Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida yo'l harakati qoidalari darslari yetarli darajada tashkil etilmasligi;
- Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kutubxonalarida yo'l harakati qoidalariga oid huquqiy adabiyotlarning yetarli darajada emasligi, shu bilan birga yangilanmaganligi. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ushbu yo'nalishda yetarli darajada bilimga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlayotganligi;
- MTM larda yosh bolalarga yo'l harakati qoidalari to'liq tushuntirib berilmaganligi, mazkur yo'nalishda bolaning yoshidan kelib chiqqan holda interaktiv dars o'tish metodlarini yanada takomillashtirish zaruriyatining mavjudligi;
- Yosh avlodlarimizni yo'l haarakati hodisalarining qurboni bo'lishini oldini olish uchun barcha birdek mas'ulligini hisobga olgan holda nafaqat maktab o'quvchilari hamda ularning ota-onalari yo'l qoidalari va ularga amal qilish madaniyatini uqtirishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'llarimiz bexatar bo'lsin desangiz / T. Mullaboyev, F. Sodiqov – T.
2. Yo'l belsilari O'ZME .Toshkent.
3. <https://lex.uz/docs/-5953883>